

O'SMIRLARDA AGRESSIV XULQ-ATVORNING NAMOYON BO'LISHI VA UNING PSIXOKORREKSIYASI

Shoniyozov Asror Ilhom o'g'li

Oriental universiteti magistranti, asrorshoniyozov9@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'smirlik davrida agressiv xulq-atvorning namoyon bo'lish shakllari, uning psixologik omillari va rivojlanish mexanizmlari tahlil qilinadi. O'smirlar orasida agressiv xatti-harakatlarning paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi individual, ijtimoiy va oilaviy omillar yoritilib, agressiyaning emotsional, kognitiv va xulqiy komponentlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, agressiv xulq-atvorni kamaytirish va ijtimoiy moslashuvni rivojlantirishga qaratilgan psixokorreksion yondashuvlar, treninglar va psixologik maslahat berish usullari tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, agressiv xulq-atvor, agressiya, psixokorreksiya, emotsional holat, ijtimoiy moslashuv, psixologik yordam.

Аннотация. В данной статье анализируются проявления агрессивного поведения в подростковом возрасте, его психологические детерминанты и механизмы развития. В исследовании рассматриваются индивидуальные, социальные и семейные факторы, влияющие на возникновение агрессивного поведения у подростков, а также эмоциональные, когнитивные и поведенческие компоненты агрессии. Кроме того, описываются психокоррективные подходы, программы обучения и методы психологического консультирования, направленные на снижение агрессивного поведения и улучшение социальной адаптации.

Ключевые слова: подростковый возраст, агрессивное поведение, агрессия, психокоррекция, эмоциональное состояние, социальная адаптация, психологическая поддержка.

Abstract. This article analyzes the manifestations of aggressive behavior in adolescence, its psychological determinants, and developmental mechanisms. The study examines individual, social, and family factors influencing the emergence of aggressive behavior among adolescents and considers emotional, cognitive, and behavioral components of aggression. In addition, psycho-corrective approaches, training programs, and psychological counseling methods aimed at reducing aggressive behavior and improving social adaptation are described.

Keywords: adolescence, aggressive behavior, aggression, psycho-correction, emotional state, social adaptation, psychological support.

Hozirgi globallashuv, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti va ijtimoiy muhitdagi tezkor o'zgarishlar sharoitida shaxs rivojlanishining muhim bosqichi bo'lgan o'smirlik davri murakkab psixologik jarayonlar bilan tavsiflanadi. O'smirlik davri shaxsiy identifikatsiya, ijtimoiy rol va qadriyatlarining shakllanishi, mustaqillik va o'zini anglash ehtiyojining kuchayishi bilan xarakterlanadi. Ushbu davrda o'smirlarning emotsional barqarorligi, xulq-atvori va ijtimoiy moslashuvi sezilarli

darajada o'zgaradi. Ayniqsa, agressiv xulq-atvorning namoyon bo'lishi zamonaviy jamiyatda dolzarb psixologik muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Agressiv xulq-atvor o'smirlar orasida zo'ravonlik, janjalkashlik, impulsivlik, ijtimoiy qoidalarga bo'ysunmaslik kabi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Bu holat nafaqat o'smirning shaxsiy rivojlanishiga, balki uning atrof-muhit bilan munosabatlariga, ta'lim jarayoniga, tengdoshlar bilan kommunikatsiyasiga va kelajakdagi ijtimoiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agressiv xatti-harakatlar erta aniqlanmasa va tegishli psixologik yordam ko'rsatilmasa, ular barqaror shaxsiy xususiyatlarga aylanib, deviant xulq-atvorning rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

So'nggi yillarda agressiya muammosi ijtimoiy tarmoqlar, kiberbulling, oilaviy nizolar, ta'lim muassasalarida zo'ravonlik holatlari ko'payishi bilan yanada keskinlashmoqda. O'smirlarning psixologik holatiga oilaviy muhit, ota-ona tarbiya uslublari, tengdoshlar guruhi, maktab muhitining iqlimi, ommaviy axborot vositalari va virtual makon sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois agressiv xulq-atvorning kelib chiqish mexanizmlarini chuqur o'rganish va unga qarshi samarali psixokorreksion strategiyalar ishlab chiqish zamonaviy psixologiya fanining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Psixokorreksiya agressiv xulq-atvorni kamaytirish, emotsional-regulyatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish, konstruktiv muloqot va muammolarni hal qilish strategiyalarini shakllantirishga qaratilgan tizimli psixologik ta'sirlar majmuasidir. Psixokorreksion ishlar individual, guruhiiy va oilaviy shakllarda amalga oshirilishi mumkin bo'lib, kognitiv-xulqiy terapiya, emotsional-intellektni rivojlantirish treninglari, konfliktologiya mashg'ulotlari va psixologik maslahat berish kabi usullarni o'z ichiga oladi. Agressiyani konstruktiv yo'naltirish va o'smirlarning ijtimoiy moslashuvini oshirish zamonaviy psixologik amaliyotning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Psixologiya fanida o'smirlik davri shaxs rivojlanishining murakkab va ziddiyatli bosqichi sifatida qaraladi. D.I. Feldshteyn tadqiqotlariga ko'ra, erta o'smirlik davrining dastlabki bosqichida (10–11 yosh) bolalar o'z shaxsiga nisbatan yuqori darajada tanqidiy munosabat bildiradilar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'g'il bolalarning taxminan 34 foizi va qizlarning 26 foizi o'zlariga salbiy shaxsiy xususiyatlarni yuklab, qo'pollik, shafqatsizlik va tajovuzkorlik kabi sifatarni o'z xulq-atvorida ustun deb baholagan. Ushbu yosh davrida jismoniy agressiya ko'proq uchrab, bilvosita agressiya nisbatan kamroq namoyon bo'lishi aniqlangan. Og'zaki agressiya va negativizm esa rivojlanishning boshlang'ich bosqichida shakllanayotgan muhim ko'rsatkichlar sifatida qayd etilgan [1].

O'smirlik davrining ikkinchi bosqichida (12–13 yosh) o'ziga nisbatan salbiy munosabat ko'p jihatdan ijtimoiy baholash omillari, ya'ni kattalar va tengdoshlar fikriga bog'liq holda saqlanib qoladi. Bu davrda negativizm eng yuqori darajada namoyon bo'lib, jismoniy va og'zaki agressiyaning kuchayishi kuzatiladi. Bilvosita agressiya esa nisbatan past darajada bo'lsa-da, yosh ortishi bilan uning o'sish

tendensiyasi qayd etiladi. Mazkur jarayon o'smirlarning mustaqillikka intilishi va avtonomlik ehtiyojining kuchayishi bilan izohlanadi.

O'smirlikning uchinchi bosqichida (14–15 yosh) o'smirlar o'z shaxsiy xususiyatlari va xulq-atvorini tengdoshlar guruhi me'yorlari bilan solishtira boshlaydilar. Ushbu bosqichda og'zaki agressiya yetakchi o'ringa chiqib, 12–13 yoshga nisbatan taxminan 20 foizga, 10–11 yoshga nisbatan esa deyarli 30 foizga oshishi kuzatiladi. Jismoniy va bilvosita agressiya darajasi ham sezilarli ravishda kuchayadi, shuningdek, negativizmning yuqori ko'rsatkichlari qayd etiladi. Bu esa o'smirlik davrida shaxsiy identitetning shakllanishi va ijtimoiy rollarni egallash jarayoni bilan bog'liq murakkab psixologik jarayonlarni aks ettiradi.

A.N. Leontyev tomonidan taklif etilgan faoliyat nazariyasi asosida og'zaki agressiyaning namoyon bo'lish motivlari o'smirlarning muhim psixologik ehtiyojlari bilan bog'liq ekani ta'kidlanadi. Jumladan, o'z-o'zini anglash ehtiyoji o'smirning boshqa shaxslar hududiga ta'sir ko'rsatish, o'z manfaatlarini himoya qilish va ustunlikka erishishga intilishi bilan ifodalanadi. O'z-o'zini tasdiqlash ehtiyoji kattalar tomonidan qo'yilgan cheklovlarga qarshilik, mustaqillik va avtonomiya istagi hamda tengdoshlar guruhida yuqori ijtimoiy mavqega erishishga intilish bilan bog'liq. Shuningdek, o'zini himoya qilish ehtiyoji masxara, kamsitish yoki ijtimoiy bosimga qarshi agressiv javob reaksiyalarining yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin [2].

I.Yu. Kulagina tadqiqotlarida o'smirlardagi agressiv xulq-atvor ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar bilan izohlanadi. Muallifga ko'ra, agressiv xatti-harakatlar ko'pincha o'smirning tengdoshlar bilan munosabatlarni qurishda qiynalishi, o'z emotsiyalarini nazorat qila olmasligi va kommunikativ ko'nikmalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi natijasida yuzaga keladi. I. Lalayans esa agressiyaning shakllanishini asosan oilaviy tarbiya uslublari, ota-ona munosabatlari va oiladagi psixologik iqlim bilan bog'liq deb hisoblaydi. Oiladagi avtoritar tarbiya, nizolar va emotsional sovuqlik o'smirlarda agressiv xulq-atvorning kuchayishiga olib kelishi mumkin [3].

Agressiv xulq-atvorni aniqlash va baholash uchun psixologiyada turli diagnostik metodikalar ishlab chiqilgan. Ular orasida Assinger so'rovnomasi shaxslararo munosabatlardagi agressivlik darajasini aniqlashga qaratilgan bo'lib, shaxsning nizolarga moyilligi va kommunikativ xususiyatlarini baholash imkonini beradi. "Hand" proektiv metodikasi E. Vagner tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ochiq agressiv reaksiyalarni prognozlashga mo'ljallangan va respondentning proektiv tasvirlarga bo'lgan reaksiyalarini tahlil qilish orqali agressiv tendensiyalarni aniqlaydi. Bass–Darki agressivlik so'rovnomasi esa agressiyaning jismoniy, og'zaki, bilvosita, g'azab, dushmanlik kabi komponentlarini aniqlash imkonini beruvchi keng tarqalgan psixodiagnostik vosita hisoblanadi [4].

O'tkazilgan tadqiqot natijalari o'smirlar orasida agressiv xulq-atvorning namoyon bo'lish darajasi turli yosh bosqichlari, shaxsiy xususiyatlar va ijtimoiy omillar bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Psixodiagnostik metodlar asosida olingan ma'lumotlar agressiyaning o'smirlik davrida dinamik xarakterga ega ekanligini va yosh ortishi bilan uning shakllari hamda ifodalanish darajasi o'zgarib borishini

tasdiqladi. Kuzatuv va suhbat metodlari asosida olingan natijalar agressiv xatti-harakatlarning shakllanishida oilaviy muhit, ota-onalarning tarbiya uslublari, tengdoshlar guruhi ta'siri hamda ta'lim muassasasidagi psixologik iqlim muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Avtoritar yoki befarq tarbiya uslubiga ega oilalarda tarbiyalangan o'smirlarda agressiv xulq-atvor darajasi yuqoriroq ekanini aniqlangan. Shuningdek, tengdoshlar orasida ijtimoiy maqom uchun kurash, bulling va raqobat holatlari agressiyaning kuchayishiga sabab bo'luvchi omillar sifatida qayd etildi [6].

Psixodiagnostik tadqiqotlar asosida o'smirlar orasida agressiyaning og'zaki, jismoniy, bilvosita shakllari, shuningdek, g'azab va dushmanlik komponentlari turli darajada namoyon bo'lishi aniqlangan. Ayniqsa, emotsional impulsivlik, stress va frustratsiyaga chidamsizlik agressiv reaksiyalarning kuchayishiga olib keluvchi asosiy omillar sifatida qayd etildi. Olingan natijalar agressiv xulq-atvor ko'pincha ichki psixologik taranglik, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar va kommunikativ ko'nikmalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog'liq ekanligini tasdiqlaydi. Olingan ilmiy xulosalar o'smirlar bilan ishlovchi psixologlar, pedagoglar va ota-onalar uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etib, agressiv xulq-atvorning oldini olish va ijtimoiy moslashuvni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Льюис, М. Самосознательные эмоции: смущение, гордость, стыд и вина / М. Льюис // Справочник эмоций. - Нью-Йорк - Лондон: The Guilford Press, 1993. - С. 563–573.
2. Ильин Е. П. Эмоции и чувства: [Учеб. пос]. - СПб.: Питер, 2019. -784с
3. Василюк Ф. Е. Типология переживаний различных критических ситуаций // Психологический журнал. –1995. – Т. 16.– № 5. – С. 23–28.
4. Kamilova N.G. Muammoli o'smir: tashhis, tadqiqot metodlari. – T.: TDPU, 2004. – B.25.

UDK: 37 : 619 : 654.15